

**Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati**

**Shoira Zamira Ro'zieva
tavalludining 65 yilligiga**

ANDIJONNING SEVIMLI SHOIRASI



Bibliografik ko'rsatkich

*She'r shahrida nafis nasimdek essam,
Riyolar tomirin chin tig'da kessam.
Andijonning darvesh qiziman desam,
Sizni so'radilar, salomlar aytdim.*

Andijon-2022

Kirish

She'r nima o'zi?
Qanday paydo bo'ladi?
U kimga kerak?

She'r - ko'ngil. SHe'r yurak sadosi. Ko'ngildan ko'ngillarga, yurakdan yuraklarga o'tadi. Hayajonga soladi, yig'latadi va kuldiradi ham.

O'tgan asrning 80 yillarining ikkinchi yarmiga kelib o'zbek milliy she'riyatida istiqlol tuyg'ulari yuksak badiiy bo'yoqlarda ifodalana boshladи. SHe'riyat o'zining qadimiy va navqiron o'zanlariga qaytdи. Badiiy so'z insonni, uning ruhiy olamini teran falsafiy tasvirlarda ijodalashga kirishdi

Ayonki, adabiy-badiiy jarayonda o'z o'rni, o'z sozi va ohangi, o'z nomiga ega bo'lgan ijodkorning shaxsiy tarjimai xoli, ham jonli tariximizning bir parchasi - o'z o'quvchisi uchun ibrat-namuna bo'la oladigan hodisadir. So'zda teranlik, tiniqlik, badiiylik biolasha olsagina chinakam she'riyat tug'iladi.

Adabiyotga katta to'lqin bilan kirib kelgan Andijonning sevimli shoirasi Zamira Ro'zieva o'z ohanglari bilan muhlislar e'tiborini jalg etdi. Bu yurtning tabiat, odamlaridagi ruhiy poklik, ulug' allomalarga hurmat tuyg'ulari shoira she'rlarida alohida joziba bilan tasvirlanadi. Zamira Ro'zieva she'rlarining lirik qahramoni "g'amdan toj ilgan Bobur" ruhiyatidagi iztiroblar bilan, Qo'qon tomonlardan Oyimqishloq yerlarini sog'ingan Nodirai Davron kechmishlaridagi to'lqinlar bilan yashaydi.

Andijonning suvi, yeri, insonlarini doimo qadrlagan, sevgan, tug'ilgan yerida ijod qilgan Zamira Ro'zieva tavalludining 65 yilligi munosabati bilan tuzilgan ushbu "Andijonning sevimli shoirasi" mavzusidagi bibliografik ko'rsatkich keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan. Qo'llanmadan shoiraning ijod namunalari, shoira ijodi haqidagi adabiyotlar ro'yxati o'rin egallagan.

Atirgulga aylangan shoira

Zamira Ro'zieva 1957 yilning 26 dekabrida Andijon shahrida tug'ilgan. U 1980-1985 yillarda Toshkent Davlat universitetining jurnalistika

fakulitetida taxsil olgan. Mehnat faoliyatini Andijon viloyat O'lkashunoslik muzeyida ilmiy xodim sifatida boshladi. So'ogra "Kitobxon" jamiyatining Oltinko'l tuman bo'limi rahbari, Respublika kasaba uyushmalari "Ishonch" gazetasining Andijon viloyati bo'yicha muxbiri vazifasida ishladi.

Zamira Ro'zievaning davr talabiga mos, dolzarb mavzudagi o'nlab badiiy publitsistik maqolalari matbuotlarda chop etilgan.

Uning "Munavvar yurtim" (1982), "Gul islari" (1985), "Qirq o'rim soch" (1994), "Nashida" (1994), "Atirgulga aylanaman" (2002), "Oftobjamol" (2005), "Jon rishtasi" (2007), "Sarchashma" (2007), "Tashnadil" (2009), "Hayratning suvrati" (2016) nomli she'riy majmualari nashr qilingan.

Shoiraning she'rlari markazidagi lirik qahramon ayol bo'lgani uchun ham latofat, noziklik, poklik tuyg'ulari ustuvordir. U o't mish, bugun va ertaning hayoli bilan yashaydi. Farzand kamolida davr kamolini ko'radi. U bir o'rinda "Ayt qancha boj kerak, mendan ol, mendan, Bolamning bo'g'zini tinch qo'ygin ingroq. Bu ma'yus ko'zlarni sog'ingan shodlik, bu kichik ko'ngilni yoritgin chiroq" deya bemor farzand qoshida unsiz chirqirayotgan ona kechinmalarini ifodalaydi.

Zamira Ro'zieva tom ma'noda xassos shoira. Uning she'rlaridagi eng yaxshi xususiyat ularda gupurib turgan samimiylig, shakl va mazmunda - oxorilikdir. Ko'nglidagi xis-tuyg'ularini o'quvchidan yashirmaydi, balki o'quvchini o'zining sirdoshiga aylantirib oladi, unga dardini aytib ruhan yengil tortadi. Uning she'rlarining yana bir fazilati - ularning tug'ilgan makon - Andijon bilan faxru iftixor etish tuyg'usiga yo'g'rilganidir. Juda ko'p she'rlari, "Jon rishtasi" dostoni Andijonning madhi-timsoliga bag'ishlagan.

Shoiraning Bobur asarlariga tatabbu'lar janri asosidagi "Tashnadil" kitobi Bobur ijodini targ'ib qilishda o'ziga mos qadam bo'ldi. U faxrlanish yo'lidan borib, Bobur Mirzoning biror satri, so'zi, iborasi, g'azali, "Boburnoma" manzaralari, jasorati, shijoati ko'ngliga uchqun solgan bo'lsa, shu bahonada uyg'ongan tuyg'ularini dadil she'rga soladi, o'zining vorislik tuyg'ularini, faxrlanish hissini ifodalaydi. Shoiraning Bobur Mirzoga bo'lgan ehtiromi, u tug'ilgan makon-Andijonga, O'zbekistonga ehtiromiday tuyuladi. "Sochining savdosi tushdi", "Bahor ayyomidur..." kabi g'azallarga bog'langan muxammaslar e'tiborga loyiqidir.

*Sen Bobur yurtidansen”
Na xush yangroq bu sado.
Shugina sado uchun
Arziydi bo'lsang fido*

*Boburning toza nasli
Jon tomirga bo'lsin jo.
Illo Bobur ishqiday
Butun ishq bersin Alloh.*

Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi-g'azalmi, ruboimi, fardmi, memuar asarmi, hikmat to'la nomalarmi-bari-barisi dunyoning eng aziz, eng qimmatli adabiy boyligi sanalishi bugun hammaga ayon. Zamira Ro'zieva o'zining qimmatli asarlaridan ilhomlanib, uoarga ta'zim qilgan ixlosmand muxlis sifatida hisoblab, kitobxonlarga hayratu hayajoni mevalarini ilinadi.

She'riyat tomirida oqqan hayotim



Zamira Ro'zieva she'riyatni ehtiyoj deb biladigan shoira. U shunchaki satrlar tizmaydi. U tanlagan so'zlarning qalbi bor. Qalb esa quvonchu iztiroblar bilan birga yashaydi.

“Ulug'lik xilqatlari”- qaerda? Unga qanday yetishmoq mumkin? U pokiza ruhda. Ruh manzillariga imon so'qmoqlaridan o'tiladi. Zotan, “ezgulik xizmatlari”ni ado etish barcha ma'naviy qalb sohiblarining imoniy burchidir. Bu yo'lda u “Yassaviy hikmatlari”ga suyanmoqni odat qilmog'i kerak. Buning uchun esa, inson o'z-o'zini anglab yetishi, qayta qurishi kerak. Shoira yaratgan lirik qahramon ana shu og'ir va ziddiyatli jarayonni boshidan kechirayotgan inson. Tabiiyki, uning qalb olami fikrlar

janggohiga aylandi. Shu sababli bo'lsa kerak, uning she'rlarida o'z-o'zi bilan yuzma-yuz turgan qalb manzaralari tasviri yetakchilik qiladi.

Zamira Ro'zieva - Andijon farzandi. Bu yurtning tabiatni, odamlaridagi ruhiy poklik, ulug' allomalarga hurmat tuyg'ulari shoira she'rlarida alohida joziba bilan tasvirlanadi. "Andijon" she'rida u quruq, balandparvoz, yaltiroq tasvirlarni chetlab o'tib, yurtga bo'lgan muhabbatini oddiy, samimiy tashbehlarda ifodalaydi.

U oshiq. Uning sig'ingani, sog'ingani muhabbat. Uning ishq iztiroblari tasviriga bag'ishlangan she'rlarida ilohiy ruhga oshiqlik kayfiyatlar ham tasavvufona ohanglar vositasida beriladi.

Andijon tomonlardan ishqu o't, mehru muhabbat shamollari keladi. Moziydan tortib to hanuz Andijon tomonlardan millat yukiga yelka tutib, uning shon-shavqatini to abad ko'taradigan pahlavoni zamonlar, inja nafas malikai davronlar keladi. Uning lirik qahramoni Vatanni imondek sevadi, ruhdek qadrlaydi. Shoira Bobur, Nodira, Cho'lpon, Dukchi Eshon kabi tarixiy shaxslar yozadimi, erku kamolini ham o'ylamay ertayu kech paxta deb jon koyitib yurgan dehqon haqida yozadimi, muhabbat bog'laridan gullar emas, xazonlar terish nasib etgan kuygan dil o'rtanishlarini qog'ozga tushiradimi-ko'z oldida bitta narsa-imon turadi.

Ayniqsa muhabbat mavzusidagi she'rlari bag'oyat samimiy.

*Kashf etganim, topgan dunyom buncha nomard,
Ko'z ochirmas kiprigimga osilgan gard.
Men bilaman, sizdan ketsam ishq o'ladirar,
Ketmasam gar o'ladiradi yori bedard.*

kabi dardli misralarni xo'rsinib o'qiganida u yosh, muhabbat iztiroblarini boshidan kechirayotgan malohatli ayolga aylangan edi...

U turli mavzularda erkin qalam tebratadi. Ijtimoiy mavzular, xususan Vatan haqida yozganda ham satrlari qayroq toshlarday jaranglab turadi.

*Vatan, topgay mukarramlig' sanda jon,
Seningsiz afsusu armon, pandda jon.
Sen bobomdan qolganim-cho'ng boyligim,
O'g'lim, qizimga o'tkay chiqqanda jon.*




Birovlarning ortida u ekkan nihollari qulf urib, gurkiragan bog'lar qoladi. Qay birovlarning ortida esa sarob jimirlagan qup-quruq dasht... Zamira Ro'zieva esa bu dovonga o'nga yaqin yangi kitoblar, to'rtta farzand, qator jannat chechaklariday nabiralar bilan kirib keldi.

Shoira "ishq rangi", "gul ohangi", "To'lg'oqli tunlar zangi"ni qofiyaga soladi-da, ularni istar kishi bo'lsa, "ko'nglimga yuoq"sin, deydi.

Zamira Ro'zieva she'riyatida xalq ijodi ohanglari va mutoz she'riyatimiz usullari o'ziga xos yo'sinda ko'rindi. U bir g'azalida yorqin bir bayt yaratadi:

*Rutubat xanjari botgay,
Vale mag'lub bo'lar jon yo'q,
Manga sarkarda ham, ham zo'r
Sipohim muhabbatdur*

She'rning go'zalligini namoyish qiladigan narsa bu samimiylilik. Hayotga oshiqlik esa, yuksak fuqarolik burch. Xalq va millatni sevish, Vatan qiyofasini ichdan his etish, buyuk maslakdir. Shuningdek, har she'r jonli, manzarali bo'lishi lozim.



Shoira ko'pincha go'zal, tiniq obraz yaratishga erishadi. U kishilarni olижjanoblikka, yaxshilik va bag'rikenglikka chaqiradi.

Zamira Ro'zieva "Qadri baland bo'lzin o'zbek ayolin" viloyat tanloving bil necha bor sovrindori bo'lgan. "Mehring bilan yashaymiz, Vatan" (1993). "Amir Temurga bag'ishlangan she'rlar" (2007). Mamlakatda o'tkazilgan "Yagonasan. Muqaddas Vatan" ko'rik tanlovi (2010). Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi tomonidan o'tkazilgan "Eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" (2011) respublika ko'rik tanlovleri g'olib bo'lgan.

Shoira 2014 yilda "Oltin qalam" milliy mukofot sovrindori bo'ldi. 2015 yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Ijodkor haqidagi ustozlar fikri:

Shoiraning lirik "men"i qalbidan otilgan shodlikda qayg'u shamollarining achchiq izg'iriglari, alamlarida esa ertangi kunda tug'ilajak erk quvonchlarining epkinlari aralash keladiki, buni ham yangi she'riyatga xos nafas deb qarash kerak.

Ismoil To'lak

Allohga shukr, Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarini so'raguvchilar, salomini so'raguvchilarga yetkazib qo'yuvchilar ko'p. Andijonning shoira qizi Zamira Ro'zieva ham ana o'sha safda ekanligini ko'rib quvonaman va unga yangidan-yangi ilhomlar tilab qolaman.

Muhammad Ali

Hayotda shunday odamlar bo'ladiki, ular ellikdami, oltmishdami, yoshidan qat'i nazar ishtiyoq, muhabbat bilan bir ishni boshlasa, go'yo hayotni yangidan boshlaganday kirishib ketaveradi. Men Zamirabegimni ana shunday umid fuqarolaridan biri deb bilaman.

Halima Xudoyberdieva

Zamira Ro'zieva she'rlari haroratli, ehtirosga mo'l. Satrlariga fikr va aql yashiringan. Ularning hammasi jo'shqin mehr bilan bitilgan.

**To'lan Nizom
Kitoblari**

1. Рўзиева Замира Мунаввар юртим [Матн]: шеърлар / З. Рўзиева. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – 72 б.
2. Рўзиева Замира Нашида [Матн]: шеърлар / З. Рўзиева. – Андижон, 1994. – 68 б.
3. Рўзиева Замира Атиргулга айланаман [Матн]: шеърлар / З. Рўзиева. – Тошкент: Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2002. – 68 б.
4. Ro'zieva Zamira Oftobjamol [Matn]: She'rlar va nasriy bitiklar / Z. Ro'zieva. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2005. – 166 b.
5. Рўзиева Замира Сарчашма [Матн]: Шеърлар ва достон / З. Рўзиева. – Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2007. – 112 б.
6. Рўзиева Замира Ташнадил [Матн]: Захириддин Муҳаммад Бобур байтларига татаббуълар ва ғазалларига муҳаммаслар / З. Рўзиева. – "Andijon nashriyot-matbaa ", 2009. – 52 б.
7. Рўзиева Замира Дилчироқ [Матн]: Публицистика / З. Рўзиева. – Тошкент: "Muхarrir nashriyoti", 2013. – 64 б.
8. Рўзиева Замира Ҳайратнинг суврати [Матн]: танланган шеърлар ва достон / З. Рўзиева. – Тошкент: "Sharq " нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2016. – 288 б.

Shoira ijodi to'plamlarda

9. Замира Рўзиева // Мирвалиев, С. Ўзбек адиблари / Собир Мирвалиев; Рихсия Шокирова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи, 2016. – Б. 352-353.
10. Замира Рўзиева Андикон ёзувчи ва шоирлари [Матн] : ҳаёти ва ижоди ҳақида. – Андикон: "Ҳаёт" нашриёти, 2004. – Б. 172-174.

Shoiraning ijodiy faoliyati vaqtli matbuot sahifalarida

11. Рўзиева, З. Фотиҳа сўрайди қизингиз : [шеър] / Замира Рўзиева // Коммунист. – 1977. – 5 янв.
12. Рўзиева, З. Ўсма : [шеър] / Замира Рўзиева // Совет Ўзбекистони. – 1979. – 8 март.
13. Рўзиева, З. Оловдайин бўлиб тўкилақол шеър : [шеър] / Замира Рўзиева // Коммунист. – 1987. – 4 апр.
14. Рўзиева, З. Андикон : [шеър] / Замира Рўзиева // Ёшлиқ. – 1987. – №3. – Б. 30.
15. Рўзиева, З. Мутолаадан сўнг : [шеър] / Замира Рўзиева // Ўзбекистон овози. – 1988. – 7 февр.
16. Рўзиева, З. Ўзингники бу ғолиб кунлар. Дукчи Эшон : [шеър] / Замира Рўзиева // Шарқ юлдузи. – 1992. – № 3. – Б. 9-10.
17. Рўзиева, З. Асраган давлати сенсан: [ғазаллар] / Замира Рўзиева // Хиссадор. – 1995. – 21 нояб.
18. Рўзиева, З. Уйғонган миллат : [шеър] / Замира Рўзиева // Андиконнома. – 1996. – 26 янв.
19. Рўзиева, З. Ҳилол эшган ипаклар: [шеър] / Замира Рўзиева // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1996. – 26 янв.

20. Рўзиева, З. Сароймулкхонимга. Тўртликлар : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 1997. – 22 июль.
21. Рўзиева, З. Бекам : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 1998. – 30 окт.
22. Рўзиева, З. Андижонлик келин: [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 1998. – 6 март.
23. Рўзиева, З. Шеърлар / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 1999. – 5 март.
24. Рўзиева, З. Ватан онам : [шеър] / Замира Рўзиева // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2002. – 19 июль.
25. Рўзиева, З. Гуллардан сўроқласин... : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2002. – 1 май
26. Рўзиева, З. Жоним, Ватан : [шеър] / Замира Рўзиева // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2003. – 17 янв.
27. Рўзиева, З. Исми унинг : [шеър] / Замира Рўзиева // Бекажон. – 2003. – №140. – Б. 3.
28. Рўзиева, З. Юлдузлардан ёғилди : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2004. – 6 март.
29. Рўзиева, З. Соғинч : [шеър] / Замира Рўзиева // Иқбол. – 2006. – 7 сент.
30. Рўзиева, З. Сизни муҳаббатга ўраб асрایман : [шеър] / Замира Рўзиева // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2007. – 2 март.
31. Рўзиева, З. Андижоннинг аёли : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2007. – 7 март.
32. Рўзиева, З. Ўзбекнинг кузи бу : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2007. – 10 окт.
33. Рўзиева, З. Севдим. Дунё : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2007. – 13 июнь.

34. Рўзиева, З. Навоийни ўқиб... : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2008. – 9 февр.
35. Рўзиева, З. Жамбил райхондан сўранг... : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2008. – 9 июль.
36. Рўзиева, З. Бахтинг бу тун бўлсин, қизойим : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2008. – 15 окт.
37. Рўзиева, З. Ҳарбийман мен : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2009. – 14 февр.
38. Рўзиева, З. Ғазал: [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2009. – 14 февр.
39. Рўзиева, З. Рухим қўшиқ симиради ариқлардан : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2009. – 19 авг.
40. Рўзиева, З. Дуолар бўлса ижобат : [шеър] / Замира Рўзиева // Холис. – 2009. – 6 май.
41. Рўзиева, З. Андижоннинг аёли бу... : [шеър] / Замира Рўзиева // Иқбол. – 2009. – 1 янв.
42. Рўзиева, З. Қарқара келин бўлинг : [мушоҳада] / Замира Рўзиева // Иқбол. – 2011. – 24 нояб.
43. Рўзиева, З. Қутлуғ келгин, янги йилим! : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2012. – 1 янв.
44. Рўзиева, З. Гулларимиз сизгадир... : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2012. – 6 март.
45. Рўзиева, З. Қишлоқда бегоналар йўқ : [Олтинкўллик Замирахон Йўлдошева ҳақида] / Замира Рўзиева // Саодат. – 2012. – №5.
46. Рўзиева, З. Ҳайрат тўла кўнгил кечинмаси / Замира Рўзиева // Олтинкўл. – 2013. – 2 февр.
47. Рўзиева, З. "Намуна"нинг намунали ишлари ҳақида : [давр одимлари] / Замира Рўзиева // Олтинкўл. – 2013. – 18 май.

48. Рўзиева, З. Митти юракларда уйғотарман ҳис : [шეър] / Замира Рўзиева // Иқбол. – 2014. – 22 май.
49. Рўзиева, З. Ватан. Навоийни ўқиб... : [шэър] / Замира Рўзиева // Келажак. – 2007. – 15 июнь.
50. Рўзиева, З. Яшил ерда ҳаёт гўзал : [шэър] / Замира Рўзиева // Шарқ юлдузи. – 2011. – № 2. – Б. 113-115.
51. Рўзиева, З. Андижон: [шэър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2012. – 4 авг.
52. Рўзиева, З. Субҳи чоғлар мужда кутдим насимлардин : [шэър] / Замира Рўзиева // Ёшлиқ. – 2013. – № 6. – Б. 46-47.
53. Рўзиева, З. Гулларимиз сизгадир : [шэър] / Замира Рўзиева // Шахрихон. – 2013. – 8 март.
54. Рўзиева, З. "Кетгим келмас умид боғидан", "Тинчликка нима етсин", "Мехрибонлик уйида" : [шэърлар] / Замира Рўзиева // Саодат. – 2013. – №5. – Б. 10.
55. Рўзиева, З. Ватан. Андижон. : [шэърлар] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2014. – 12 июль.
56. Рўзиева, З. Аёлга қасида : [шэър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2014. – 5 март.
57. Рўзиева, З. Она дейди... : [шэър] / Замира Рўзиева // Олтинқўл. – 2015. – 13 янв.
58. Рўзиева, З. Сирли қалам чизгилари : [Ўзбекистон халқ ёзувчиси Муҳаммад Алининг "Улуг салтанат" эпопеяси ҳақида] / Замира Рўзиева // Китоб дунёси. – 2015. – 25 февр.
59. Рўзиева, З. Тилак. Қўшиқ. Ватан. Алёр. Атиргулим. Таскин. Тиниклашиб : [шэър] / Замира Рўзиева // Водий гавхари. – 2015. – апр.
60. Рўзиева, З. Хурлик чироқлари: [шэър] / Замира Рўзиева // Шарқ юлдузи. – 2015. – №2. – Б. 119-121.
61. Рўзиева, З. Дунё кезар кашфида улуғ исми шарифинг : [шэър] / Замира Рўзиева // Китоб дунёси. – 2015. – 6 май

62. Рўзиева, З. Ватан : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2015. – 22 авг.
63. Рўзиева, З. Умримдаги лаҳзалар: [шеър] / Замира Рўзиева // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2015. – 21 авг.
64. Рўзиева, З. "Дарёлик бер кўнгил деган гўшага" : [ғазаллар] / Замира Рўзиева // Қишлоқ оқшоми. – 2015. – 3 сент.
65. Рўзиева, З. Райхонзор йўлаклар : [шеър] / Замира Рўзиева // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2016. – 13 май.
66. Рўзиева, З. Куйи бугун яна биттага қўпайди: [Андижон туманидаги 16-болалар мусиқа ва санъат мактаби ҳақида] / Замира Рўзиева // Миллий тикланиш. – 2016. – 13 янв.
67. Рўзиева, З. Соғлом она ва бола / Замира Рўзиева // Миллий тикланиш. – 2016. – 10 февр.
68. Рўзиева, З. Хурлик суурулари : [мустакиллик ҳақида] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2016. – 9 июль.
69. Рўзиева, З. Рухни бойитувчи маскан: [АКМ касаба уюшмаси фаолиятидан] / Замира Рўзиева // Ишонч. – 2016. – 24 нояб.
70. Рўзиева, З. Сулувлиги Зухрою Лайларига юққан... : [шеър] / Замира Рўзиева // Олтинкўл. – 2016. – 5 март.
71. Рўзиева, З. Гулларимиз сизгадир : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2016. – 5 март.
72. Рўзиева, З. Инсон азиз : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2016. – 1 янв.
73. Рўзиева, З. "Эрк ҳақида", "Ўзбекистон муборак ватан!" : [шеърият] / Замира Рўзиева // Водий гавхари. – 2016. – 21 июль.
74. Рўзиева, З. Ҳаёлдаги атиргул ҳиди: [шеър] / Замира Рўзиева // Шарқ ўлдузи. – 2016. – №10. – Б. 89-91.
75. Рўзиева, З. Видо : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2016. – 4 сент.

76. Рўзиева, З. Энг буюк неъмат : [шеърлар] / Замира Рўзиева // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –2017. –10 март.

77. Рўзиева, З. Гулларимиз сизгадир : [шеър] / Замира Рўзиева // Давр садоси. – 2017. – 4 март.

78. Рўзиева, З. Улғайиш сабоқлари : [АДУ ходими М. Ботиров ҳақида] / Замира Рўзиева // Ишон. – 2017. – 11 март.

79. Рўзиева, З. Гул-гулзор ичиндаман : [шеърлар] / Замира Рўзиева // Саодат. – 2017. – № 4. – Б. 10.

80. Рўзиева, З. Эътироф. Эл химоячиларига. Уйғониш: [шеър] / Замира Рўзиева // Холис. – 2017. – 4 сент.

81. Рўзиева, З. Юрагим навқирон куч топиб урап... : [шеър] / Замира Рўзиева // Олтинқўл. – 2017. – 9 сент.

82. Рўзиева, З. Андижоннинг суюкли шоираси : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2017. – 6 сент.

83. Рўзиева, З. Адиб энди "Чекка"да қолмайди : [адабиётга эътибор] / Замира Рўзиева // Саодат. – 2018. –№3. – Б. 3.

84. Рўзиева, З. Ватан десам Рўзиева, З. Мутолаадан сўнг : [шеър] / Замира Рўзиева // Давр садоси. – 2019. – 12 янв.

85. Рўзиева, З. Мангуберди : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2019. – 30 янв.

86. Рўзиева, З. Шукronа : [шеър] / Замира Рўзиева // Андижоннома. – 2019. – 31 авг.

Shoira haqidagi maqolalar

87. Соғинчлар келади юракларимга : [Замира Рўзиева 50 ёшда] // Холис. – 2007. – 7 июн.

88. Жалолиддин Наби Шоирлиги чин шоира / Наби Жалолиддин // Андижоннома. – 2007. – 13 июн.

89. Андижоннинг илғор шоираси : [Замира Рўзиева 50 ёшда] // Иқбол. – 2007. – 14 июн.

90. Мирзаева, С. "Сарчашма" / С. Мирзаева // Андижоннома. – 2008. – 9 февр.

91. Юксак мукофот муборак! : [Олтин қалам танлови ғолиби Замира Рўзиева] // Олтинкўл. – 2014. – 9 май.

92. Олтин қалам танловининг лауреати : [Замира Рўзиева] // Андижоннома. – 2014. – 7 май.

93. Жалилов, С. Ватан куйчиси / С. Жалилов // Андижоннома. – 2014. – 1 февр.

94. Замира Рўзиева Шеър бу -узлик таржимони : [Шоира Замира Рўзиева билан сухбат] / М. Исажонов // Водий гавхари. – 2014. – 20 март

95. Аслий Икромжон Эътибор ва эътироф: [Унвон муборак-таниқли шоира Замира Рўзиевага] / Икромжон Аслий // Водий гавхари. – 2015. – 10 сент.

Ismlar ko'rsatkichi

Рўзиева Замира	1-86
Жалолиддин Наби -	88
Мирзаева, С.	90.
Жалилов, С.	93.
Исажонов М.	94.
Аслий Икромжон	95.

*Тузувчи: АБХ-Ўлкашунослик сектори мудири
Солиева Д.*